

ONA TILI DARSLARIDA HIKMATLI SO'ZLARDAN FOYDALANISH

Roziyeva Sevara Karimjonovna

Andijon viloyati Paqxtaobod tumani

10 - sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi Ona tili adabiyot oqituvchisi

Annotatsiya. Xalqimiz qadimdan oz farzandlarining faqatgina jismoniy jihatdan yetuk va barkamol bolishini emas, bama`ni, ularning ziyrak, otkir xotirali, tez va togri fikrlovchi inson bolishini orzu qilgan. Bu borada shubhasiz aql-idrok, otkir zehn va donishmandlikni orttiruvchi maqol, matal hamda hikmatli so`zlarning orni beqiyosdir. Ushbu maqolada ona tili darslarida hikmatli sozlardan foydalanish haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit sozlar: ona tili, interfaol metodlar, hikmatli sozlar, maqol, matal, ijdoiyl salohiyat va h.k.

Hikmatli so`zlar, maqol va matallar ozining eng qadimiy va betakrorligi, yuksak ijodiyl salohiyatga ega ajdodolarimizning kop asrlik ananalari, turmush-tarzi, tarixi, dunyoqarashi, turli etiqodlari haqida teran va mukammal malumot beruvchi manaviy va madaniy oltin merosimiz hisoblanadi. Bunday hikmat namunalari barkamol avlod tarbiyasiga kuchli badiiy-estetik va ruhiy-iijtimoiy tasir korsatish qudratiga ega. Binobarin, Hikmatlarni organish, ularni targ`ib va tadqiq qilish orqali xalqimiz manaviyatiga oid yangi-yangi malumotlarni bilib olish mumkin. Eng, muhimi, bunday hikmatlar yoshlarimiz tafakkurini bebaho injular bilan boyitadi. Til xalq hayotining kozgusi va ozbek xalqi hayotining bebaho qomusi hisoblananishi mavzuning dolzarbligini ko`rsatadi. Tabiiyki, bu jarayonda xalqimizning manaviy ananalariga, hikmatli soz, matal va maqollarning insonparvarlik mohiyatiga etibor qaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlar va ularning eng ilgor qatlami bolgan talaba yoshlarni yuksak manaviyat va

marifat sohibi qilib tarbiyalashda ming yillar davomida saqlanib kelinayotgan xalq maqollari, matallar va hikmatli sozlarning orni kattadir. Xalq asrlar mobaynida toplagan hayotiy tajribasini turli vositalar yordamida kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqollar, hikmatli soz va matallar ana shunday bebahos meros namunasi hisoblanadi. Ular zamonlar osha, xalq donishmandligini muhim manbai sifatida ogizdan — ogizga otib, sayqallanib kelgan. Maqollar xalq ogzaki ijodining boshqa janrlari singari, har bir xalqning milliy adabiy va madaniy boyligi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida Xalqning boy intelektual merosi va umumbashariy qadryatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisotiyot, fan, texnika va texnologiyaning yutiqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Ozbekiston taraqqiyotining muhim sharti ekani takidlangan. Ana shunday boy intelektual mulklardan biri maqollar va matallardir. Maqollar xalqning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan teran fikrlarning aniq va ixcham ifodasi sifatida chuqur mazmunga ega bolgan alohida janr hisoblanadi. Xalq tilidagi, yani dialektlardagi maqollarni toplash, ularni adabiy tilga olib kirish, hamda, maqollarning qatlamlarida yuz bergen turli ozgarishlarni, yani ularning tadrijiy taraqqiyotini organish va tahlil qilish nafaqat tilshunoslikning, balki oqituvchilarining ham muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maqol xalq ogzaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bolgan janrlaridan biri bolib, u xalqning kop asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Maqollar ozlarining ijtimoiy-goyaviy funksiyalariga kora, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa bazi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Shu boisdan ham maqallarning tematik kolami juda ham keng bolib, bu kolamni juziy hayotiy voqelik doirasi bilan chegaralab bolmaydi; ijtimoiy borliqning hech bir sohasi yoqki, u maqollarda aks etmagan bolsin. Maqollar kop asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi oziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynida hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida necha martalab sinovlardan otadi. Har bir maqolning xalq orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi

sekinlik bilan amalga oshadi. Chunki muayyan maqolni qabul qilib oluvchi jugrofiy muhit uni oz sharoitida qaytadan sinovdan otkazib olgandan keyingina oz mulkiga aylantiradi. Davlat talim standarti talablariga kora, ona tili mashgulotlari komunikativ texnalogiya asosida tashkil etilmogi, darsning samaralilik va sifat darajasi jahon andozalariga mos bolishi, oquvchilarda ijodiy tafakkurini rivojlantirish, qiroat sanatini shakillantirish ananaviy oqituvchi —oquvchi muloqotiga qoshimcha ravishda zamonaviy oquv-texnika vositalaridan unimli foydalanish asosiga qurilishi lozim. Til darslari nafaqat fikrlash va uni ifodalsh balki, soz boyligini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, gozal qiroat sanatini shakllantirishga ham xizmat qilmogi lozim. Ona tilida komunikativ savodxonlikni taminlashga qaratilgan oquv topshiriqlarini ishlab chiqish va uni kompyuter dasturiga kiritish ayni shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Mazkur ishni bajarishning qulay usuli ona tili darslarida multi-media xizmatidan foydalanish dasturlashtirib, disketlarga joylangan oquv —topshiriqlari yordamida badiiy matnlar yaratishga moljallangan komunikativ metodlar ustida ishslashdir. Ona tili talimida hikmatli sozlarni orgatish oqituvchidan katta tayyorgarlik va mahoratni talab etadi. Har bir beriladigan topshiriqlar orqali oquvchilarining ijodiy tafakkurni rivojlantirish, hamda togri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Buning uchun esa oqituvchi har bir darsda beriladigan topshiriqlarga puxta tayyorgarlik korgan holda darsning qiziqarli, samarali otishini yolga qoymogi lozim. Yuqori sinflarda matn ostida berilgan maqollarni oqish va organish, tahlil qilish asar oqilib, tahlil qilinib bolingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bolgan goyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash qiyin boladi. Mualliflar ham maqol ma'nosini asar voqealari bilan izohlamoqchi boladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodova N. Oqituvchi nutqini mahalliy sheva tasirida vujudga keltirish talaffuz hamda imlo vositalari va ularni tuzatish usullari aftoreferat" 1993 y.
2. Matchonov.S Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar T Oqituvchi 1996 y
3. Mahmudov N, Nurmonov A, Sobirov A.Ona tili 5-sinf darslik (toldirilgan 3-nashri) T.Manaviyat.2011
4. Nurmonov,A.Sobirov,A. Yusupova, SH Hozirgi ozbek adabiy tili litsey darsligi.T — Ilm ziyo, 2010 y
5. Nematov.H, Abduraimova M, Ona tili darsligi 8- sinf.T. Cholpon 2014 y.